

## TEMIRBETON KO'PRIKLARDA GIDROIZOLYASIYANING AHAMIYATI

Karimova Anora Baxtiyrovna,  
Barotov Ashurali Ixtiyor o'g'li,  
(Toshkent davlat transport universiteti)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada temirbeton ko'priklarda gidroizolyasiyaning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan va tahlil natijalari keltirilgan.

### Annotation:

This article provides information on the importance of waterproofing in reinforced concrete bridges and presents the results of the analysis.

**Kalit so'zlar:** ko'prik; konstruksiya; gidroizolyasiya; izolyasiya; darz.

**Keywords:** bridge; construction; waterproofing; insulation; crack.

Temirbeton ko'priklar elementlarining uzoqqa chidamliligini ta'minlash uchun, ularning konstruksiyasi betonga suv kirishidan himoyalangan bo'lishi lozim. Suvning betonga davomli ta'siri ohakning erishi va yuvilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida beton mustahkamligini pasaytiradi va uning asta-sekin yemirilishiga olib keladi (1-rasm). Bu jarayon ayniqsa navbatma-navbat muzlab – erishda tez kuzatiladi [1].




1-rasm. Temirbeton ko'prik konstruktiv elementlarining yemirilishi




Betonni suv ta'siridan himoyalash uchun u gidroizolyasiya bilan qoplanadi. Gidroizolyasiya ballast koritasi plitasi yuzasiga qilinadi (2-rasm). Suvning oqishi uchun plita yuzasiga qiyalik beriladi. Izolyasiyaning chetlari bortlarning maxsus chuqurchalariga mahkamlanadi [2-5].

Ballast koritasining gidroizolyasiyasi butun izolyasiya qilingan yuza bo'yicha suv o'tkazmaydigan bo'lishi, suvga, biologik va kimyoviy ta'sirlarga bardoshli bo'lishi, issiq-sovuqqa bardoshli bo'lishi, vaqt davomida va hisobiy haroratlar intervalida elastikligini yo'qotmasligi, betonning izolyasiya qilingan yuzasida ruxsat etilgan darzlar paydo bo'lganida yaxlitligini saqlashi kerak [6-8,16].



2-rasm. Ballast koritasining gidroizolyasiyasi ko'ndalang kesimi

Ballast koritasining izolyasiyasi quyidagi talablarni bajarishi shart:



**Gidroizolyasiya** sement-qum qorishmasi yoki mayda donali betondan iborat bo'lgan tayyorlov (tekislov) qatlami ustiga surtiladi [1, 9]. Gidroizolyasiyani yotqizishdan oldin tayyorlov qatlami gruntovka bilan qoplanadi (3-rasm).

Qurilish hududining klimatik sharoitlariga bog'liq holda gidroizolyasiyaning turli tiplari qo'llaniladi. Bitum mastikali BM-1 indeksli gidroizolyasiya barcha klimatik




zonalarda qo'llanilishi mumkin [10,11]. Bu gidroizolyasiya qaynoq holda surtiladigan to'rt qatlam bitum mastikasidan va uch qatlam shishamato yoki lyon – jut-kanop matosidan iborat.



3-rasm. Ko'prik polotnosida gidroizolyatsiyani yotqizilish jarayonlari

Bitum mastikasining oxirgi (tekislovchi) qatlami ustiga **sement – qum** qorishmasi yoki mayda donali betondan iborat himoya qatlami yotqiziladi. Bu qatlam diametri  $2\div4\text{mm}$ , yacheyka o'lchamlari  $45\div75\text{mm}$  bo'lgan simdan tayyorlangan setka bilan armaturalanadi [12-15]. Himoya qatlamining tayyor bo'lgan yuzasiga bitum gruntovkasi surtiladi.

Izol rulonli gidroizolyasiya (indeksi IR) yumshoq iqlimli hududlarda qo'llaniladi. Bu izolyasiya asosiy bo'lmagan rulonli izol va sovuq izol mastikadan iborat [21, 22]. Izol mastikaning ichida armaturalangan qatlam bo'ladi va u rulon qatlamlari orasiga yopishtiriladi (4, b-rasm).



4-rasm. Izolyasiya qilishning variantlari: a) – bitum mastika (BM-1); b) – rulonli izolyasiya (IR); 1 – himoya qatlami; 2 – bitumli gruntovka; 3 – bitumli mastika; 4 – armaturalovchi material; 5 – izolli gruntovka; 6 – rulonli izol; 7 – izolli mastika



Suv ballast koritasidan plitaning chetlarida joylashgan suv qochiruvchi quvurchalar (4, a-rasm) orqali tushirib yuboriladi. Diametri eng kamida 15sm bo'lgan quvurchalar cho'yandan tayyorlanadi va uning qadami (bir-biridan uzoqligi) suv to'planadigan yuzaning  $1\text{m}^2$  ga quvurchaning  $5\text{m}^2$  to'g'ri kelishi hisobidan olinadi [17-19]. Quvurchalar teshiklari bo'lgan cho'yan qopqoqlar bilan berkitib qo'yiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, temirbeton ko'priklarning eng ko'p takrorlanadigan nuqsonlari va kamchiliklari quyidagilardir: ko'priknining osti gabaritining o'lchami yetarli darajada emasligi, ko'prik polotnosi va deformatsion choklardagi yoriqlar, hamda gidroizolyatsiyaning talab darajasida emasligi. Buning oqibatida ko'priknining asosiy konstruksiyalarini yuk ko'taruvchanligi pasaytiradi hamda konstruksiyaning uzoq ishlashini kamaytirishga olib kelishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Salixanov S.S. Transport inshootlarini loyihalash va qurish. 1-qism. Temir yo'llardagi temirbeton ko'priklar va quvurlar. Darslik. – Toshkent, TashIIT, 2017. – 398 b.
2. Raupov, C., Shermuxamedov, U., & Karimova, A. (2021). Assessment of strength and deformation of lightweight concrete and its components under triaxial compression, taking into account the macrostructure of the material. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 02015). EDP Sciences.
3. Raupov, C., Karimova, A., Zokirov, F., & Khakimova, Y. (2021). Experimental and theoretical assessment of the long-term strength of lightweight concrete and its components under compression and tension, taking into account the macrostructure of the material. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 02024). EDP Sciences.
4. Shermukhamedov U.Z., Tayirov Sh.Sh. Some features of damage to un-cut reinforced concrete bridges under severe earthquakes // Journal Science and Innovation Volume 2 Issue 1. 2023. – p.54-62.
5. Ulugbek, S., Saidxon, S., Said, S., & Fakhriddin, Z. (2020). Method of selecting optimal parameters of seismic-proof bearing parts of bridges and overpasses on high-speed railway line. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 1076-1080.
6. Karimova A.B., Barotov A. (2022). Gruntlarning fizik - mexanik xossalarini aniqlash. Procedia of Theoretical and Applied Sciences (Portugal) "International Symposium of Life Safety and Security", 1-5.
7. Karimova A.B., Barotov A. (2023). Impact of Earthquakes on Artificial Structures. Miasto Przyszłości, 33, 48-52.



8. KA Baxtiyrovna, BA Ixtiyor o'g'li. (2023). Qoziqli poydevor turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 165-168.
9. Shermukhamedov, U., Karimova, A., Abdullaev, A., & Hikmatova, I. (2023). Calculation of monolithic bridges taking into account seismic conditions of Republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 365, p. 02005). EDP Sciences.
10. Shermukhamedov, U., Karimova, A. (2022). Современные подходы проектирования и строительства мостов и путепроводов в Республике Узбекистан. Science and innovation, 1(A8), 647-656.
11. Shermukhamedov, U., Karimova, A., Khakimova, Y., & Abdusattorov, A. (2022). Modern techniques for the construction of monolithic bridges. Science and innovation, 1(A8), 790-799.
12. Yaxshiev, E. T., Zokirov, F. Z., & Karimova, A. B. (2019). Research of system conditions for formation of failure on mathematical models by the results of the research of reinforced concrete bridges. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 36-41.
13. Raupov, C., Yaxshiev, E., & Karimova, A. (2018). The principles of calculation of preliminary-stressed reinforced concrete elements of a tripping structure under dispersed arming. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers.
14. Shermukhamedov, U.Z., Karimova, A.B., Khakimova, Ya.T. & Abdusattorov A.A. (2022). Construction technology of new types of continuous reinforced concrete (monolithic) bridges and overpasses. Scientific Impulse, 1(4), 1023-1032.
15. Shermukhamedov, U., Mirzaev, I., Karimova, A., & Askarova, D. (2022, March). Calculation of the stress-strain state of monolithic bridges on the action of real seismic impacts. In 1st International Scientific Conference "Modern Materials Science: Topical Issues, Achievements and Innovations"(ISCMMSTIAI-2022), (Tashkent (pp. 314-321).
16. AB Karimova, X Sheraliyeva. (2022). Qumli gruntning fizikaviy ko'rsatkichlarini tavsiflash orqali hisobiy qarshiligini aniqlash. Academic research in educational sciences, 472-482.
17. Shermukhamedov, U., Karimova, A., & Khakimova, Y. (2022). Real seismogramma yozuvlari ta'sirida uzluksiz monolit ko'priklarni konstruksiyalarining dinamik tahlili. Научный импульс, 291-296.



18. Raupov C. S., Malikov G. B., Zokirov J. J. Foreign experience in application of high-strength expanded clay concrete in buildings and structures (review of published studies) //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 9. – С. 135-142.
19. Shermukhamedov, U., Karimova, A. (2022). Modern approaches to the design and construction of bridges and overpasses in the republic of Uzbekistan. Science and innovation, 1(A8), 647-656.
20. B Nazarov, Z Mirzaeva & B Saidov. (2023). Deformation monitoring of multilevel residential building during construction. Interpretation and researches.
21. Салиханов, С. С., & Шермухамедов, У. З. (2020). Мостовое полотно железобетонных мостов с использованием нового типа гидроизоляции. Путевой навигатор, (42), 30-32.
22. Shermuxamedov, U. Z., & Zokirov, F. Z. (2019). Application of modern, effective materials in rail road reinforced bridge elements. Journal of tashkent institute of railway engineers, 15(3), 8-13.

